

**IRANIAN FOLK TALES: THE USE OF THE WORD "افساند" ("TALE") AND ITS SYNONYMS IN PERSIAN FOLKLORE***O'tkur Abdikhamitovich Umarov**Senior lecturer**UzSUWL**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: legend, short story, fairy tale, epic, dialect, proverb, story, story.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: This article is about the positive and negative aspects of the characters of Iranian folk tales, animals, including legends, stories, fairy tales, epics, dialects, proverbs, stories, storytellers, roosters, rabbits, foxes, wolves, and hawks. is spoken. In those times, professional storytellers (or storytellers) who narrated examples of fiction also used terms in local dialects. The virtues and vices characteristic of some people in the society of the Persian, Dari and Tajik peoples are defined through these myths and the behavior of animals.

ERON XALQ ERTAKLARI: FORS FOLKLORSHUNOSLIGIDA “افسانه” (“ERTAK”) SO‘ZI VA UNDAGI SINONIMLARNING QO‘LLANILISHI*O'tkur Abdixamitovich Umarov**katta o'qituvchi**O'zDJTU**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: afsona, qissa, ertak, doston, lahja, matal, naql, cho'pchak, hikoya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Eron xalq ertaklaridagi afsonaguyonlar, hayvonlar, jumladan afsona, qissa, ertak, doston, lahja, matal, naql, cho'pchak, hikoyaaytuvchilar xo'roz, quyun, tulki, bo'ri va hakovlarxarakterlariga xos ijobiy va salbiy jihatlar xususida so'z yuritiladi. O'sha davrlarda badiiy adabiyot namunalarini aytib beruvchi professional hikoyachilar (yoki ertakchilar) mahalliy lahjalarda ham atamalarni ishlatishgan. Ushbu afsonaguyonlar va hayvonlarning xatti-harakati orqali

atamalarni fors, dariy va tojik xalqlariningjamiyatdagi ba'zi insonlarga xos bo'lgan fazilat va illatlar ta'riflanadi.

ИРАНСКИЕ НАРОДНЫЕ СКАЗКИ: УПОТРЕБЛЕНИЕ СЛОВА «افساند» («СКАЗКА») И ЕГО СИНОНИМОВ В ПЕРСИДСКОМ ФОЛЬКЛЕРЕ

Откур Абдихамитович Умаров

Старший преподаватель

УзГУМЯ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: легенда, рассказ, сказка, эпос, диалект, пословица, рассказ, рассказ.

Аннотация: В данной статье говорится о положительных и отрицательных сторонах персонажей иранских народных сказок, животных, в том числе легенд, рассказов, сказок, эпосов, диалектов, пословиц, рассказов, сказителей, петухов, кроликов, лисиц, волков и ястребов. В те времена профессиональные рассказчики (или рассказчики), рассказывавшие примеры художественной литературы, также использовали термины на местных диалектах. Через эти мифы и поведение животных определяются добродетели и пороки, свойственные некоторым людям в обществе персидских, дарийских и таджикских народов.

KIRISH

Ertaklar o'zining turli sinonimlari tufayli Eron aholisi o'rtasida keng ko'lamda tarqalgan, lekin ular, mamlakat olimlari o'rtasida biron-bir aniq atamani belgilash bo'yicha baxs predmetiga aylanmagan. Shu bilan birga, ba'zi tadqiqotchilar o'z to'plamlarining nomlarini mahalliy lahjada berganliklarini sezish qiyin emas. Masalan, Xoroson, Kermon, Mazandaronning ba'zi hududlarida ertaklarni "اوسانه", "اوسونه" va "اوسنه" deb ataydilar. Arok va uning atrofida joylashgan hududlarda "اوسانه", "قصيده", "متل", "شوقات" atamallari keng tarqalgan bo'lib, "شوقت" so'zi "shov, ya'ni shab – tun" va "qot – vaqt so'zining qisqartirilgan shakli" bo'lib, tungi vaqtdagi hursandchilikni bildirgan. Sovah shahri va uning atrofidagi qishloqlarda "اوستونك", Xur va Biyobanak hududlarida "اوسونك" atamallari ishlatiladi. Shirozda "متيل" va "قصه" so'zlaridan foydalanadilar, Siston va Janubiy Xorosonda "اسوكه" so'zidan va Boyir Ahmadda "متيل" atamasidan foydalanadilar. Undan tashqari, Xuzistondagi ba'zi forsiy zabon arablar "سالفه" atamasini ishlatiladilar va bu so'z qadimgilar tarixi ma'nosini anglatadi. Erondagi ozarbayjonlar "تفيل" va "ناقل/ناغيل", kurdlar "چيروك", "راز" va "بيت" atamalaridan foydalanadilar. Eronning Kishm ko'li hududlarida ertakni "chichiko", Hurmuzgon shahri yaqinidagi Govband qishlog'ida ertakni "gap-

e-shap(b)” – kechki suhbat deb ataydilar va kechki suhbatlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘sha ertak aytish ma’nosini bildirib, ayniqsa qish tunlarida ermak va tarbiyaviy maqsadlarda o‘tkazilgan.

ASOSIY QISM

Avvallari va hozirgi kunlarda ham, eronlik qariyalar yoki ko‘proq, yoshi uncha katta bo‘lmagan mahoratli afsonaguylar Eronning qishloq hududlarida ertaklar aytishadi, yoshlar va bolalar esa eshitishadi. Shu jihatdan insoniyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida xalq tafakkuri va falsafasi shakllanishida ertak qahramonlari va personajlarining roli kattadir. Ertaklar doimo xalqqa ma’naviy ozuqa berib, insoniyatni yaxshi orzular haqidagi niyatlarga to‘la yangi hayot qurish yo‘liga yo‘naltirgan. Ana shuning uchun ham, aynan o‘ziga tortuvchi ertaklarga bo‘lgan bunday kuch Firdavsiy, Nizomiy, Attor, Jaloliddin Rumiy, Jomiy va boshqa o‘nlab buyuk shoirlarni o‘ziga jalb qilgan va ular o‘z asarlarida an’anaviy ertak va uning imkoniyatlaridan foydalanganlar. Ertaklarga bag‘ishlangan madhiyalarning barpo etilishi ham bejiz emas. Masalan, Jaloliddin Muhammad Balxiy (Rumiy) o‘zining ertaklarga bo‘lgan maylini shunday ifodalaydi:

کودکان افسانه ها می آورند،
درج در افسانه‌شان بس سیروپند.
هزلها گویند در افسانه ها،
کنجی جو در همه ویرانه ها.

Tarjimasi:

Bolalar chun ertak ayturlar necha,

Bag‘rida sirru sinoat ayricha.

Muddao-hazlu huzula afsonadin,

Sen vale ganj izla ul vayronadin.

Ertaklar va ularni boshqa og‘zaki nasr janrlari bilan bog‘liqligi haqidagi aniq tasavvurlarga ega bo‘lish uchun og‘zaki nasrning boshqa turli-tuman shakllari va “afsanah” atamasining sinonimlari bilan tanishib chiqamiz.

“qissa” (“قصه”) og‘zaki nasrning janri sifatida ko‘pgina G‘arb va Sharq folklorshunoslarining tadqiqot obyekti bo‘lgan. Forsiyzabon og‘zaki ijodiyot bo‘yicha juda ko‘p manbalarida va arxiv materiallarida “qissa”, “afsona”, “hikoyat”, “rivoyat” kabi janrlarning aralashganligi kuzatiladi. Bunga birinchidan, xalq og‘zaki nasri bo‘yicha yetarli ilmiy to‘plam nashrlarining mavjud emasligi sababdir. Ilmiy nashrlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, ular atrofida baxs va munozaralar shunchalik ko‘p bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, boshlanishni og‘zaki diniy asarlardan olgan, asrlar davomida va’zxonlar, roviylar tomonidan aytib kelingan badiiy diniy-kitobiy va og‘zaki qissalar nasihatimiz asarlar sifatida qabul qilingan.

Aslini olganda “qissa” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, fors lug‘atlarida, xususan, Ali Akbar Dehxudo lug‘atida “خبر”, “حديت”, “داستان”, Muhammad Muyin lug‘atida “حكايت، داستان”, “خبر،

”سرخن، خرف، قصه“، ”عريضه، عرض حال“، ”بيان حال، بيان احوال“، ”حديث“ sifatida izohlanadi. Bu soʻz oʻzbek adabiyotida ”qissa“, rus adabiyotida ”povest“ maʼnosida keladi. Fors adabiyotida esa, bu soʻzga ogʻzaki ijodiyotning atamasi sifatida qarashimiz lozim. ”Qissa“da axloqiy-etik va diniy-ibratli motivlar ustunlik qiladi. Oʻz mohiyatiga koʻra, ”qissa“ning asosiy maqsadi – diniy taʼlimotlar orqali vijdon, adolat, mehribonlik, samimiylik va insonparvarlik yoʻli boʻyicha jamiyatni tarbiyalash hisoblanadi. Biroq, diniy qissalar haqida soʻz yuritgan tadqiqotchilar ”ertak“ soʻziga juda kam murojaat etadilar. Biz ertaklarda uchratgan kompozitsiya qissalarda mavjud emas. Qissalar ”Bor ekanda, yoʻq ekan...“ soʻzlari bilan boshlanmaydi va ular koʻngil xushlik, ermak uchun emas, balki pand-nasihatchilik uchun moʻljallangan.

Qissalardagi voqyealar mubolagʻalar, gʻayrioddiy uydirmalar, toʻqima kompozitsiya bilan ifoda etilgan boʻlsa-da, xalq qissalarni jonu dili bilan tinglaydi va ularga muqaddas hikoyalar sifatida hurmat bilan qaraydi. Oʻtgan yuz yilliklardagi juda koʻp qissalarning syujetlari paygʻambarlar, islom dini, Qurʻon, Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ugʻitlari, Imom Ali va uning avlodlari, soʻfiylar, mashhur ulamolar va boshqa diniy voqyalar bilan uzviy bogʻliqdir.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ”afsona“ va ”qissa“ atamalarining qator farqlari mavjud:

- 1) ertakdagi syujet ermak, koʻngil ochish uchun moʻljallangan;
- 2) ertaklarda bir nozik ”yolgʻon“ning borligi;
- 3) ularning shakliy farqi;
- 4) ertaklardagi diniy boshlanishning yoʻqligi;
- 5) ertaklar barcha yoshu qari, ilmi va ilmsiz, ayol va erkaklar uchun aytilsa, qissa asosan ilmi va zodogonlar, agar ilmsiz boʻlsa ham hurmatga sazovar qariyalar uchun moʻljallanganligi.

Ertaklarda muqaddas obrazlar kam ishlatiladi, lekin shunga qaramay, qissalar taʼsirida baʼzi ertaklar ”بسم الله الرحمن الرحيم“ ”bismillahi rahmon-ir-rahm“ soʻzlari bilan boshlanadi.

”Afsona“ bilan ”qissa“ oʻz shakli, syujeti, obrazlari bilan farq qilsa-da, ularda maʼlum bir bogʻliqlik mavjud. Zero, hozirgi vaqtga qadar, ”afsona“ bilan ”qissa“ vazifalari oʻrtasidagi chegaralar qoʻyishga urinishlar Eron ilm-fanida oʻz yechimini kutmoqda.

”اسطوره“ (”mif“, ”afsona“) soʻzi Muhammad Muyin lugʻatida ”afsona“, ”qissa“, ”tarqoq (sochma) soʻzlar“ maʼnosida berilgan. Arab tilida koʻplik shaklidagi ”اساتير“ soʻzi ertak, afsona, tartibsiz doston, notoʻgʻri rivoyatlar, ilohiy ertaklar va qadimgi bahodirlar haqidagi ertaklar maʼnosini bildiradi.

”افسانه“ ”afsona“ atamasining sinonimlaridan biri ”داستان“ (”doston“)dir. Ali Akbar Dehxudo lugʻatida boʻlib oʻtgan voqyealar tarixi, oʻtmish voqyealari sifatida taʼriflanib, ”حكايت“, ”نقل“, ”سرگذاشت“, ”سمر“, ”قصه“, ”افسانه“, ”داستان“, ”حكايت“, ”سرگذاشت“ Muhammad Muyin lugʻatida ”سرگذاشت“, ”حكايت“ deb izohlangan. Eron yozuvchisi, adabiyotshunos Jamol Mirsodiqiy dostoniga quyidagicha izoh beradi:

“Doston umumiy ma’nodda yozma yoki og‘zaki, real yoki xayoliy tarzda o‘tmishni ketma-ketlikda bayon etish. Boshqacha qilib aytganda, doston – real va tarixiy voqyealarni, xayoliy va ijodiy fikrlarni ketma-ketlikda berishdir”. Doston turlari haqida so‘z yuritgan J.Mirsodiqiy yana shunday fikrlarni bildiradi: “Fors tilida doston so‘zi qissa, hikoyat, afsona va sargo‘zasht kabilarni belgilashda ishlatiladi va adabiy atama sifatida, bir tomondan, qissalarning turli shakllarini, ikkinchi tomondan, badiiy adabiyotning turli qismlarini, jumladan, doston, roman, uzun doston va shu kabi ijodiy adabiyot qismlarini o‘zida mujassam etgan.

Ertak so‘zining sinonimlaridan yana biri “روایت” (“rivoyat”) bo‘lib, aksariyat forsiy zabon tadqiqotchilar “afsona”, “qissa” va “rivoyat” atamalarini sinonimlar deb biladilar. Bu atama Ali Akbar Dehxudo lug‘atida biror kimsaning so‘zlarini yoki xabarlarini aytib berish ma’nosiga ega, Muhammad Muyin lug‘atida ham, xuddi shunday ma’noga ega va bu xabar va hadislar Payg‘ambar (s.a.v.) yoki Imomlar haqida bo‘lishi ham mumkin.

Rivoyatlar asosini voqyealar va tarixiy shaxslar, geografik nomlar va hayovonot olami tashkil qiladi va o‘z shakliga ko‘ra rivoyatlar afsonalarga o‘xshamaydi. Eronda hanuzgacha alohida rivoyatlar chop etilgan to‘plamlar mavjud emas. Lug‘atlarda esa, bu janrga nisbatan aniq nuqtai nazar yo‘q. Lekin afsona va rivoyat o‘rtasidagi farqlarga qaramay, ular o‘rtasida umumiylik mavjud bo‘lib, bu sohada ham aniq ajratishlar hali amalga oshirilmagan.

Rossiyalik sharqshunos I. Braginskiyning yozishicha, “yozma adabiyotni tashkil qiluvchi afsona va rivoyatlarni hikoyachilar, va’zchilar o‘z usullarida gapirib beradilar. Shunday qilib, yozma adabiyot va og‘zaki ijodiyot o‘rtasida o‘ziga xos og‘zaki shakl mavjud bo‘lgan. Yozma adabiyotda mavjud bo‘lgan bunday og‘zaki shakl asosini turli hajmdagi – kichik latifalardan to katta romanlargacha bo‘lgan badiiy matnlar tashkil qilgan. Biroq bu matnlar keng kitobxonlar doirasi uchun emas, faqat tinglovchilar uchun mo‘ljallangan. Bu matnlarni aksariyat hollarda hikoyachilarning o‘zlari yozib, keyin aytib berganlar va vaqt o‘tishi bilan hikoyachilarning bu yozganlari yozma adabiyotga aylanib, ularning qo‘lyozmalarini bilimli odamlar o‘qishni boshlaganlar”.

“حکایت” (“hikoyat”) ham “افسانه” (“afsona”) so‘zining sinonimlaridan biri bo‘lib, Dehxudo lug‘atida kimningdir so‘zlarini qayta aytib berish, bayon qilish, Muhammad Muyin lug‘atida bilgan voqyeasini yoki dostonni so‘zlab berish, “قصه”, “داستان”, “سرگذشت” ma’nolarini bildirishi aytilgan.

“افسانه” so‘zining yana bir sinonim atamalaridan biri – “مَثَل” (“matal”) so‘zidir. Ali Akbar Dehxudo lug‘atida yaxshilik bilan yakunlanadigan xurofiy, qisqa qissalar bo‘lib ularning asosiy personajlari hayvonlar va parilar. “مَثَل” odatda bolalar uchun yoziladi. Matalda jiddiy bo‘lmagan, g‘ayrioddiy voqyealar tasvirlanadi va u xalq qissalari hisoblanadi.

Fors adabiyotida “سرگذشت” (“sargo‘zasht”) so‘zi ham “افسانه” (“afsona”) atamasining sinonimlaridan biri hisoblanadi. Haqiqatda yuz bergan yoki to‘qib chiqarilgan voqyealarni qiziqarli tarzda hikoya qiluvchi voqyeaband asar sargo‘zasht asar deyiladi. Bunday asarlarda sirli va ajabtovur voqyealar tasvirlanib, syujet vaziyatlari keskin o‘zgaradi va personajlar taqdirida keskin burilishlar yuz beradi.

Ali Akbar Dehxudoning lug‘atida “واقعہ” (“voqyea”), “احوال” (“ahvol”), “ماجرای” (“mojaro”), “سمر” (“kechki suhbat, kechki ertak”) ma’nosida deb izohlangan. Muhammad Muyin lug‘atida “رویداد” (“holat, voqyea, hodisa”, “واقعہ” (“voqyea”), “شرح حال” (“ahvolga aniqlik kiritish, izohlash, bildirish”) ma’nolari keltirilgan.

XULOSA

Eron folklori tadqiqotchilari asosan ikki – “افسانه” va “قصه” atamalariga suyanadilar. Masalan, Sodiq Hidoyat, Kuli Kermaniy, Fazlilloh Muhtadiy Subhiy, Amirquli Aminiy, Muhammad Sodiq Humayuniy, Muhsin Meyhando‘st, Manuchehr Salimiy, Ali Ashraf Darveshiyon, Samad Behrangiy, Saodat Ashkuriy, Said Husayn Mirkozimiy va boshqalar o‘zlarining ertaklar to‘plamlarida “افسانه” “afsona” so‘zidan foydalanganlar. Anjaviy Shiroziy, Nodir Ibrohimiy, Mahdiy Ozor Yazdiy kabi yozuvchi va adabiyotshunoslar o‘z asarlarida “قصه” “qissa” so‘zini qo‘llaganlar. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, yuqorida nomlari keltirilgan adabiyotshunoslar “افسانه” “afsona” va “قصه” “qissa” so‘zlarini sinonim sifatida kelishi haqida aniq fikrlar bildirmaganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shomuhamedov Sh. Eron xalq ertaklari. Toshkent. 1959.
2. AbulqosimFirdavsiy. Shohnoma. ForstildanSh.Shomuhamedovtarjimasi. F.Fulom nomidagi Adabiyotvasan’atnashriyoti. Toshkent.1-kitob 1975, 2-kitob 1976, 3-kitob 1977.
3. Persidskiye narodnyye skazki. Perevod i sostavitel A.A. Romaskevich M-L. 1934.
4. Persidskiye narodnyye skazki. Perevod i sostavitel A.Z. Rozenfeld. «Nauka». Moskva. 1958.
5. Persidskiye skazki. Perevod A.Aliyeva, A. Bertelsa, N. Osmanova. Izd-vo Vostochnaya literatura. Moskva. 1958.
6. Persidskiye narodnyye skazki.. Tashkent. 1959.
7. I. S. Braginskiy Iranskoy literaturnoy naslediy. Moskva. Izd-vo “Nauka”.Moskva. 1984.
8. Persidskiye narodnyye skazki. Sost. M.N. Osmanov. Predisl. D.S.Komissarova. Moskva. Izd-vo “Nauka”.Moskva. 1987.
9. 1375 افسانه ها و متلهای کردی، گردآورده: علی اشرف درویشیان، تهران،
10. 1382 چهل افسانه خراسانی، گردآورده: حسین علی بیهقی، تهران،
11. فرید دانشفر، قصه های عامیانه چیست؟ آشنایی با انواع قصه های عامیانه و ایرانی //https://fidibo.com>blog>wh. 2021 yil 23 sentyabr
12. livelib.ru/book/1000452672-skazki-isfahana-persidskie-skazki
13. <https://www.cgje.org.ir>>article>خرس>محسن ابراهیمی،